

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03-RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**XOJASOV MURATBEK ALLAMURATOVICH**

**QUYI AMUDARYO SUG'ORILADIGAN O'TLOQI-ALLYUVIAL  
TUPROQLARINING EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATINI  
AGROFIZIKAVIY XOSSALAR ASOSIDA BAHOLASH  
(CHIMBOY TUMANI MISOLIDA)**

03.00.13 – Tuproqshunoslik

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy  
(PhD) on agricultural sciences**

**Xojasov Muratbek Allamuratovich**

Quyí Amudaryo sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarining ekologik-meliorativ holatini agrofizikaviy xossalari asosida baholash (Chimboy tumani misolida).....3

**Хожасов Муратбек Алламуратович**

Оценка эколого-мелиоративного состояния орошаемых лугово-аллювиальных почв низовья Амударьи на основе агрофизических свойств (на примере Чимбайского тумана).....21

**Xojasov Muratbek Allamuratovich**

Assessment of the ecological and meliorative state of irrigated meadow-alluvial soils of the lower reaches of the Amu Darya based on agrophysical properties (on the example of the Chimbay district).....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03-RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**XOJASOV MURATBEK ALLAMURATOVICH**

**QUYI AMUDARYO SUG‘ORILADIGAN O‘TLOQI-ALLYUVIAL  
TUPROQLARINING EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATINI  
AGROFIZIKAVIY XOSSALAR ASOSIDA BAHOLASH  
(CHIMBOY TUMANI MISOLIDA)**

03.00.13 – Tuproqshunoslik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Qx1095 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tdau.uz](http://www.tdau.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Saidova Munisa Ergashevna**  
biologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Jolibekov Berdiyax Baxtiyarovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor  
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti

**Axmedov Almon Usmonovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim  
Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03-raqamli Ilmiy kengashning «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_\_\_ yil soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00, faks: (+99871) 260-38-60, e-mail: [tuag\\_info@edu.uz](mailto:tuag_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**N.B.Raupova,**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, b.f.d., professor

**G.S.Sodiqova,**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, b.f.n., dotsent

**R.Kurvantayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi o'rinbosari, q.x.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda iqlimning o'zgarishi, haroratning keskin ko'tarilishi natijasida qurg'oqchilikning kelib chiqishi sho'rlangan tuproqlar maydonining oshishiga sabab bo'lmoqda. Shu o'rinda bevosita ta'kidlash joizki, sho'rlangan tuproqlarni diagnostika qilish va sho'rlanganlik darajasini baholash masalalari olib borilgan tadqiqotlarning uzoq tarixiga qaramay, hali ham kamligicha qolmoqda. Qaysiki, "...Global xarita ma'lumotlariga ko'ra, yer sharida 833 million gektardan ortiq sho'rlangan tuproqlar mavjud (sayyora hududining 8,7 foizi). Ularning aksariyati Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil mintaqalarida joylashgan. Shu bilan birga, xaritada barcha qit'alardagi sug'oriladigan tuproqlarning 20-50 foizi haddan tashqari sho'rlanganligi ko'rsatilgan, bu esa butun dunyo bo'ylab 1,5 milliarddan ortiq odamning tuproq degradatsiyasi tufayli oziq-ovqat yetishtirishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechirayotganini ko'rsatadi"<sup>1</sup>.

Jahonda sho'rlangan tuproqlarni boshqarish va ular unumdorligini qayta tiklash, sho'rlanishni oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or tajribalar ilgari surilmoqda. Bu borada jahon miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlarga nazar soladigan bo'lsak, turli darajada sho'rlangan tuproqlarning agrofizikaviy xususiyatlarini bevosita tuproqning unumdorligini baholashda tutgan o'rnini hisobga olgan holda ulardan tuproqlarni fizik holatini tahlil qilish orqali ekologik baholash tizimini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tuproqning sho'rlanishi yerlarning fizik degradatsiyasiga va ularning qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida, tuproqning fizik tanazzulga uchrashi ko'plab tabiiy ofatlarning boshlanishiga turtki bo'lib xizmat qiladi. Sho'rlangan tuproqlar maydonining keng tarqalishi va buning natijasida ekin maydonlarining qisqarishi sho'rlangan tuproqlarning ekologik-meliorativ jihatidan baholashni taqozo etadi.

Respublikamizda sug'oriladigan tuproqlarning unumdorlik ko'rsatkichlarini pasayishiga olib keluvchi sabablarni aniqlash, salbiy jarayonlarni oldini olish, tuproqlarni muhofaza qilish va unumdorligini oshirish bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...tuproqlarni muhofaza qilish va unumdorligini oshirish"<sup>2</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu bois, sug'oriladigan tuproqlarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi tutgan muhim o'rnini hisobga olgan holda, ushbu tuproqlarning asosiy fizikaviy xususiyatlarini aniqlash orqali ularning meliorativ holatini tahlil qilish va ekologik baholash muhim amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-sonli "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-

<sup>1</sup> <https://www.fao.org/newsroom/detail/salt-affected-soils-map-symposium/ru>

<sup>2</sup> <https://president.uz/oz/pages/view/strategy>

tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-sonli «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-fevraldagi PQ-71-sonli "Qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tuproqlar sho'rlanishi va ular melioratsiyasi masalalari, shuningdek sho'rlangan tuproqlarning agrokimyoviy, agrofizikaviy xossalarini, unumdorlik holatini o'rganish bo'yicha keng qamrovli tadqiqot ishlari turli davrlarda qator olimlar, xususan: V.A.Kovda, N.V.Kimberg, A.N.Rozanov, M.A.Pankov, M.G.Minashina, N.I.Bazilevich, V.B.Yegorov, P.A.Letunov, Ye.I.Pankova, L.T.Tursunov, I.T.Turapov, B.S.Mambetnazarov, S.A.Abdullaev, V.G.Popov, X.T.Riskiyeva, R.Q.Qo'ziev, M.M.Toshqo'ziev, G'.Yuldashev, V.E.Sektimenko, B.Jollybekov, A.Ramazonov, R.Kurvantayev, A.U.Axmedov, A.J.Boirov, A.J.Ismanov, A.A.Tursunov, A.Mirzambetov, A.Arzimbetov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Lekin, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida tarqalgan turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan tuproqlarning fizikaviy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish orqali ekologik-meliorativ jihatdan baholash borasida ilmiy izlanishlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti "Agrokimyo va tuproqshunoslik" kafedrasining "Tuproqlar degradatsiyasi, unumdorligi muhofazasi va ularni yaxshilashda innovatsion texnologiyalar" mavzusidagi (2021-2025) tematik loyihasi hamda Qaraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari institutining QXA-540 "Qoraqalpog'iston respublikasining tuproqlari sharoitida ekinlarni parvarishlashda tuproq agrofizik xossalariga ta'sirini o'rganish va monitoring yuritish" (2020-2024 yy.) mavzusidagi xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** – Quyi Amudaryo hududida tarqalgan turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning fizik holatini tahlil qilish asosida ekologik-meliorativ jihatdan baholashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

hudud tuproqlarining agrokimyoviy, kimyoviy, agrofizikaviy xossalarini sho'rlanish jarayonlari ta'sirida o'zgarishini aniqlash;

tuproqlarning fizik holatini integral ko'rsatkichi qiymatini aniqlash asosida tuproqlarni ekologik jihatdan baholash;

sho'rlangan tuproqlarning ekologik holatini belgilovchi xususiyatlar o'rtasidagi korelyatsion bog'liqliklarni aniqlash;

geoaxborot tizimlari asosida tadqiqot hududi tuproqlarining sho'rlanganlik holatini tavsiflovchi elektron xaritalarni tuzish;

geoaxborot tizimlari asosida tadqiqot hududi tuproqlarining unumdorlik xususiyatlarini (TOU zaxirasi, gumus, harakatchan fosfor, almashinuvchan kaliy miqdori, tuproq mexanik tarkibi, hajm og'irligi, solishtirma og'irlik, g'ovaklik) tavsiflovchi elektron xaritalar tuzish;

Quyida Amudaryo hududida tarqalgan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning unumdorlik xususiyatlarini aks ettiruvchi ma'lumotlar bazasini yaratish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanida tarqalgan turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** asosini sho'rlangan tuproqlarning xossaxususiyatlari, fizik holati, ekologik-meliorativ baholash, sho'rlanish tipi, sho'rlanish darajasi, elektron xaritalar, tuproq organik uglerodi zahirasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dala va laboratoriya tadqiqotlari tuproqshunoslik sohasidagi umum qabul qilingan standart uslublar bo'yicha amalga oshirilgan bo'lib, hudud tuproqlarining xususiyatlarini aniqlash va elektron xaritalarni yaratishda profil-genetik, qiyosiy-geografik, laboratoriya-analitik, kameral-tahliliy usullardan foydalanilgan, jumladan, tuproq xossa-xususiyatlarini aniqlash bo'yicha tahlillar "Теории и методы физики почв", "Руководство к проведению химических и агрофизических анализов почв при мониторинге земель" uslubiy qo'llanmalari va O'zPITI da qo'llaniladigan usullar bo'yicha, olingan ma'lumotlarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida, Geoaxborot tizimi asosidagi tahlillar ESRI kompaniyasining ArcGIS 10.8.1. dasturining Deterministic methods-Inverse Distance Weighting (IDW) usullari bo'yicha amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Quyida Amudaryo hududi sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlari agrokimyoviy, kimyoviy va agrofizikaviy xossalarning hozirgi holati va ularni sho'rlanish jarayonlari ta'sirida o'zgarishi aniqlangan;

sug'oriladigan tuproqlarining meliorativ holatiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan va tuproqlarning profili bo'ylab tuzlar miqdorining o'zgarish qonuniyatlari aniqlangan;

sho'rlangan tuproqlarni ekologik jihatdan baholash maqsadida ular fizik holatini belgilovchi xususiyatlar o'rtasidagi korelyatsion bog'liqliklar aniqlangan;

sho'rlangan tuproqlarning fizikaviy holatini integral ko'rsatkichlari asosida hudud tuproqlarini ekologik jihatdan baholash shkalasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

geoaxborot tizimlari asosida Chimboy va Baxitli massivlari tuproqlarining sho'rlanganlik holatini tavsiflovchi elektron xaritalari tuzilgan;

geoaxborot tizimlari asosida Chimboy va Baxitli massivlari tuproqlarining organik uglerodi zaxirasi bilan ta'minlanganlik holati bo'yicha elektron xaritalar

tuzilgan;

geoaxborot tizimlari asosida QQDITI xo'jaligi tuproqlarining agrokimyoviy va agrofizikaviy xususiyatlarini tavsiflovchi elektron xaritalar tuzilgan;

tuproqlarning unumdorlik xususiyatlarini aks ettiruvchi ma'lumotlar bazasi yaratilgan va O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligida ro'yxatdan o'tkazilib mualliflik guvohnomasi olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** belgilangan vazifalar asosida olingan nazariy va amaliy natijalarni bir-biriga mosligi, tadqiqotlar agrotuproqshunoslik va tuproqshunoslik sohasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda bajarilganligi, olingan natijalarni statistik tahlil qilinganligi, ilmiy asoslanganligi, respublika va xalqaro miqyosidagi konferensiyalarda muhokamadan o'tganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan nufuzli mahalliy va xorijiy nashrlarda chop etilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sho'rlangan tuproqlarning fizikaviy xususiyatlarini va meliorativ holatini aniqlash hamda ularni o'zgarish qonuniyatlarini tahlil qilish asosida olingan ma'lumotlar tabiiy va antropogen omillar ta'sirida yuzaga kelayotgan tuproqlarning fizik degradatsiyasiga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda, tobora maydoni kengayib borayotgan sho'rlangan tuproqlarning fizik holatini ekologik baholashda ilmiy asos sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, geoaxborot tizimlari asosida tuzilgan tuproqlarning agrofizikaviy va agrokimyoviy xususiyatlarini, organik uglerod zahirasini hamda sho'rlanganlik holatini tavsiflovchi elektron xaritalar quyi Amudaryo hududining tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda sug'oriladigan tuproqlardan unumli foydalanishda, tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilashga yo'naltirilgan tadbirlarni belgilashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Quyi Amudaryo sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining ekologik-meliorativ holatini agrofizikaviy xossalari asosida baholash (Chimboy tumani misolida)" bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

QQDITI (Qoraqalpog'iston Dehqonchilik ilmiy tadqiqoti instituti) xo'jaligi tuproqlari misolida tuproq unumdorligining diagnostik ko'rsatkichlarini (gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy miqdori, mexanik tarkibi, hajm va solishtirma og'irligi, g'ovaklik) hamda sho'rlanishini tavsiflovchi 1:10000 masshtabli turli mavzuli elektron xaritalar yaratilgan va Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumani Qishloq xo'jaligi bo'limida ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 4-oktabrdagi 01/01-3633-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yaratilgan elektron xaritalardan hudud tuproqlarining unumdorlik holatini monitoring qilishda, meliorativ holatidan va boshqa omillardan kelib chiqqan holda sho'rlangan yerlardan samarali foydalanish bo'yicha agrokimyoviy va agrofizikaviy tadbirlarni belgilashda ilmiy asos sifatida xizmat qilgan.

tuproqlardagi organik uglerod zahirasini tavsiflovchi xaritalar yaratilgan va

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Chimboy tumani Baxitli massivining 2562,3 gektar yer maydonida va Chimboy massivining 3295,6 gektar yer maydonida amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil 25-sentabrdagi 01/18-926-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, degradatsiyaga uchragan tuproqlarning xossa-xususiyatlarini yaxshilash, unumdorligini saqlash, qayta tiklash va barqarorlashtirish bo‘yicha agrotexnik, agrokimyoviy hamda hududning tuproq-iqlim sharoitlariga mos tadbirlar majmuini belgilash imkonini bergan.

tuproqlarning sho‘rlanish xaritalari tuzilgan va Qoraqalpog‘iston Respublikasining Chimboy tumani Baxitli massivining 2562,3 gektar yer maydonida va Chimboy massivining 3295,6 gektar yer maydonida amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil 25-sentabrdagi 01/18-926-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, sho‘rlanish jarayonining rivojlanish tendensiyalarini tez va sifatli baholash orqali sho‘rlanish jarayonini oldini olish, salbiy oqibatlarini yumshatish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni belgilash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari asosida to‘plangan materiallar 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan. Shuningdek, olingan natijalar asosida 1 ta ma’lumotlar bazasi tuzilgan va mualliflik guvohnomasi olingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, jumladan 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 115 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotni ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi to‘g‘risidagi hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiyani tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi, ya’ni adabiyotlar sharhi ikki qismga bo‘lingan bo‘lib, **“Sho‘rlanish jarayonlarining tuproqlarning xossa-xususiyatlariga ta’siri bo‘yicha o‘rganilgan adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi qismida tuproqlarning asosiy xossa-xususiyatlariga sho‘rlanish jarayonining ta’sirini o‘rganish bo‘yicha turli yillarda olib borilgan ilmiy ishlarning tahlili keltirilgan. **“Tuproqlarni ekologik-meliorativ jihatidan baholash bo‘yicha ilmiy qarashlar”** deb nomlangan

ikkinchi qismida tuproqlarning ekologik holatini baholashda turli usullardan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Adabiyotlar sharhining so'ngida sho'rlangan tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini baholashda ularning fizikaviy funksiyalarini bajaruvchi asosiy agrofizikaviy xususiyatlari qiymatlaridan va zamonaviy usullardan foydalanish bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlar yetarlicha emasligi, shu bois bunday tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etishi to'g'risida xulosalar qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Quyida Amudaryo hududi tabiiy-iqlim sharoitlari va tuproq qoplami”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda hududning geografik joylashuvi, tadqiqot obyektining relyefi, gidrogeologik sharoitlari, iqlim xususiyatlari, o'simlik dunyosi kabi tabiiy sharoitlarining sho'rlangan tuproqlar shakllanishidagi ahamiyati, hududning tuproq qoplami, tuproqlarining morfologik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu bobda hudud tuproqlarining shakllanishi va rivojlanishi atrof-muhitning doimiy holatda o'zgaruvchan sharoitlariga bog'liq ravishda amalga oshishi va tuproqlarda sho'rlanish jarayonlarining jadal tarzda kechishi ko'p jihatdan tuproq-iqlim sharoitlariga bog'liqligi xususida fikr yuritilgan.

**“Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning xossa-xususiyatlari va ular asosida tuproqlarni ekologik-meliorativ baholash”** deb nomlangan uchinchi bobida hudud tuproqlarining sho'rlanganlik holati, kimyoviy va agrokimyoviy xossalari, hudud tuproqlarining mexanik tarkibi, umumiy fizik va suv-fizik xossalari, hudud tuproqlarining agrofizikaviy xossalari asosida ularning ekologik holatini tahlil qilishning ilmiy asoslari, hudud tuproqlari fizikaviy holatining integral ko'rsatkichini hisoblash va ular asosida tuproqning ekologik holatini baholash bo'yicha tadqiqotlar natijalari yoritilgan.

Hudud tuproqlaridagi sho'rlanish jarayoni hamda sizot suvlarining yer yuzasiga yaqin joylashganligi tuproq qoplaminin tuzilishi va tarkibida sezilarli iz qoldiradi. Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarining sho'rlanish darajasi tuproq profili bo'ylab quruq qoldiq miqdoriga bog'liq holda turli kattaliklarda tebranib turishi ma'lum bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida genetik qatlamlarda tuzlar miqdorini turlicha, ya'ni ma'lum bir qonuniyatga bo'ysunmagan holda taqsimlanganligidan dalolat beradi. Tadqiqot hududi tuproqlarida sho'rlanish darajasi bo'yicha turli-tumanlik mavjud, ya'ni sho'rlanmagan tuproqlardan kuchsiz, o'rtacha, kuchli va juda kuchli sho'rlangan tuproqlar uchrab turadi. Sho'rlanish tipi esa asosan xlorid-sulfatli va sulfatli. Tuproqlarda tuzlarni sizot suvlariga yaqin joylashgan quyi qatlamlar tomon ortib borishi kuzatiladi. Tuproqlarda tuzlarni harakati bilan bog'liq yana bir holat, bu profilning ustki qatlamlarida tuzlar miqdorini maksimal darajada to'planishidir. Bu o'z navbatida doimiy ravishda tuproqdan namlikni parlanish jarayoni bilan bog'liq holda kechadigan holatdir.

Tuproqlardagi tuzlarning zahiralari ulardagi quruq qoldiq miqdoriga, sho'rlanish darajalariga muvofiq katta oraliqda tebranib turishi ma'lum bo'ldi (1-jadvalga qarang). Masalan, sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan tuproqlarining ustki qatlamlaridagi tuzlar zahirasi 3,20 dan 9,12 t/ga gacha oraliqda o'zgarib turishi qayd etildi. Tuproq profili bo'ylab tuzlar harakatiga mos ravishda tuzlar zahirasi quyi qatlamlar tomon oshib borishi kuzatiladi. Tadqiqot hududida tarqalgan o'rtacha va kuchli darajada

sho'rlangan tuproqlarda bu ko'rsatkich 17,13 dan 41,95 t/ga ni, juda kuchli sho'rlangan va sho'rhoklarda esa 13,87-62,14 t/ga ni tashkil etdi. Sho'rhok tuproqlarda esa zaxarli tuzlar miqdori profil bo'ylab 0,428 % dan 2,403 % gacha bo'lgan oraliqda tebranishi ma'lum bo'ldi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'rganilgan tuproqlarda tuzlar zaxirasi sho'rlanganlik darajasiga hamda genetik qatlamning qalinligiga bog'liq holda o'zgaradi, ya'ni tuzlar zaxirasining yuqori qiymatlari juda kuchli darajada sho'rlangan va sho'rhok tuproqlarda kuzatildi. Shunday qilib, hududda turli darajada sho'rlangan tuproqlarning mavjudligi, profil bo'ylab tuzlar harakatida muayyan qonuniyatning yo'qligi tadqiqot hududining arid iqlimi, relyefining tuzilishi va gidrogeologik sharoitlariga bog'liqligi bilan izohlanadi.

### 1-jadval

#### O'tloqi-allyuvial tuproqlarning alohida qatlamlari uchun hisoblangan tuzlar zahirasi, t/ga

Tuproq ayirmalari nomi	Tuzlar zahirasi hisoblangan qatlam chuqurligi, sm		
	0-30	0-50	0-100
Kesma-1. Eskidan sug'oriladigan o'tloqi tuproq, QODITI xo'jaligi, xlorid-sulfatli tip, sho'rlanmagan	3,20 t/ga	6,92 t/ga	14,71 t/ga
Kesma-5. Eskidan sug'oriladigan o'tloqi tuproq, Baxytli massivi, sulfatli tip, sho'rlanmagan	5,11 t/ga	9,24 t/ga	23,57 t/ga
Kesma-8. Yangidan sug'oriladigan o'tloqi tuproq, Chimboy massivi, xlorid-sulfatli tip, kuchsiz sho'rlangan	9,98 t/ga	18,21 t/ga	34,16 t/ga
Kesma-10. Eskidan sug'oriladigan o'tloqi tuproq, Chimboy massivi, sulfatli tip, kuchsiz sho'rlangan	35,3 t/ga	44,04 t/ga	71,58 t/ga
Kesma-7. Sho'rhok tuproq, Chimboy massivi, xlorid-sulfatli tip, juda kuchli sho'rlangan	61,81 t/ga	95,71 t/ga	160,04 t/ga
Kesma-11. Eskidan sug'oriladigan o'tloqi tuproq, Chimboy massivi, xlorid-sulfatli tip, o'rtacha sho'rlangan	17,13 t/ga	31,22 t/ga	61,00 t/ga
Kesma-14. Yangidan sug'oriladigan o'tloqi tuproq, Chimboy massivi, xlorid-sulfatli tip, kuchli sho'rlangan	43,927 t/ga	63,55 t/ga	104,98 t/ga

Hudud tuproqlarida gumus va oziqa elementlari miqdorining profil bo'ylab taqsimlanishi asosan tuproqlarning sho'rlanganlik darajasi, mexanik tarkibi, sug'orish davri bilan bog'liq holda kechadi. Hudud tuproqlari gumus miqdori bilan ta'minlanganligi bo'yicha 3 guruhga ajratildi: o'rtacha ta'minlangan (gumus miqdori – 1,0-1,5%) – sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan eskidan va yangidan sug'oriladigan tuproqlar, gumus miqdori 1,03 - 1,33 %; past ta'minlangan ( 0,5-1,0 %) – ba'zi kuchsiz, shuningdek, o'rta, kuchli va juda kuchli sho'rlangan yangidan sug'oriladigan tuproqlar va o'tloqi sho'rhok tuproqlar, gumus miqdori 0,50-0,99 %; juda past ta'minlangan (<0,5 %) - tipik sho'rxoklar, gumus miqdori 0,40-0,48 % ni tashkil etadi.

Hudud tuproqlarida oziqa elementlari miqdorining eng yuqori qiymatlari ustki akkumulyativ qatlamlarga to'g'ri keladi. Sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan eskidan va yangidan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning yuqori haydalma qatlamida yalpi azot miqdori 0,061-0,098%, yangidan sug'oriladigan o'rtacha va kuchli sho'rlangan tuproqlarda 0,057-0,083%, yangidan sug'oriladigan juda kuchli

sho'rlangan va sho'rhok tuproqlarda 0,033-0,062% ni tashkil qiladi. O'rganilgan tuproqlar harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy miqdori bo'yicha, asosan, o'rtacha, kam va juda kam ta'minlangan tuproqlar guruhlariga ajratiladi. O'tloqi-allyuvial tuproqlarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – bu ular profilida karbonatlarning yuqori miqdorlarda namoyon bo'lishidir. Hudud tuproqlarida karbonatlarning miqdori profil bo'ylab katta oraliqda tebranishi ma'lum bo'ldi va 7,93 % dan 12,38 % ni tashkil etdi. Huddi shu holatda gips miqdorini ham o'tloqi-allyuvial tuproqlarda ancha keng oraliqda o'zgarishini ko'rish mumkin. Ya'ni, ushbu tuproqlarda gipsning miqdori 0,130-0,345 % atrofida bo'ldi. Hudud tuproqlarining pH muhitiga keladigan bo'lsak, o'rganilgan barcha tuproqlarni asosan kuchsiz ishqoriy muhitga ega ekanligi ma'lum bo'ldi va tuproqlarni pH qiymati 7,68-8,62 atrofida ekanligi aniqlandi.

Tuproqning mexanik tarkibi uning unumdorligini baholashda, tuproqning meliorativ holatini yaxshilash uchun mo'ljallangan tadbirlar tizimini ishlab chiqishda, o'simliklarni normal sharoitda o'sib rivojlanishi uchun, shuningdek qishloq xo'jaligi yerlaridan barqaror foydalanishda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Hudud tuproqlari mexanik tarkibi bo'yicha serqatlam tuzilishga ega bo'lib, profil bo'ylab qatlamlar almashinishida keskin o'zgaruvchanlikni kuzatish mumkin. Aksariyat hollarda tuproq profili bo'ylab quyi qatlamlar tomon mexanik tarkibning qumloq va qumgacha yengillashishi, yoki profilning o'rta qismida yengillashib keyingi qatlamlarda og'irlashishi kuzatiladi. O'rganilgan tuproqlarda fizik loy miqdori ( $<0,01$  mm) juda keng oraliqda, 4,8 va 75,5 % atrofida tebranib turadi. Tuproqlar tarkibidagi mexanik fraksiyalar ulushi bo'yicha mayda qum (0,1-0,05 mm) va yirik chang (0,05-0,01 mm) fraksiyalari ustunlik qiladi.

Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning fizik xususiyatlari bo'yicha aniq va batafsil xulosalarga ega bo'lish ularning o'ziga xos bo'lgan genetik xususiyatlarini yanada aniqroq baholash, sho'rlangan tuproqlarni meliorativ holatini yaxshilashga yo'naltirilgan agromeliorativ tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Hudud tuproqlarida solishtirma og'irlik yuqori qatlamlarda 2,62-2,67 g/sm<sup>3</sup> oraliqida, pastki qatlamlarda esa uning 2,70-2,74 g/sm<sup>3</sup> atrofida tebranishi qayd qilindi. Tavsiflanayotgan tuproqlarda hajm og'irligi qiymati tuproq profili bo'ylab solishtirma og'irlik qiymatlariga nisbatan o'zgaruvchan xususiyatlarga ega bo'lib, nisbatan keng oraliqlarda tebranishi qayd qilinadi, jumladan bu qiymatlar 1,27 dan 1,47 g/sm<sup>3</sup> gacha ni tashkil qiladi. Tuproq qatlamlari bo'ylab solishtirma og'irligi va hajmiy massasi qiymatlarining o'zgarishlari g'ovaklik qiymatini o'zgarishiga olib keladi. G'ovaklikning eng optimal qiymatiga eskidan va yangidan sug'oriladigan sho'rlanmagan tuproqlar ega. Ushbu tuproqlarda g'ovaklikning yuqori qiymatlari ustki haydalma qatlamlarda qayd qilinib, 50,9-52,3 % ni tashkil qilishi aniqlangan, bu holatni ushbu qatlamlarda gumus miqdorining nisbatan yuqoriligi bilan izohlash mumkin. Tuproq profilining o'rta qismida g'ovaklikning birmuncha kamayishi kuzatilib, 47,9-48,5 % ni, navbatdagi qatlamlarda, ya'ni tuproq profilining eng chuqur qatlamlarida 46,3% ni tashkil qilishi aniqlangan. Tuproqning quyi qatlamlarida g'ovaklikning qiymatining pasayishi organik moddalar miqdorining kamayishi, quyi qatlamlarning nisbatan zichlashishi bilan bog'liq holatda izohlanadi. O'rganilgan tuproqlar tarkibidagi gumus miqdori, mexanik tarkibi, sho'rlanish darajasiga bog'liq

holda maksimal gigroskopik namlik va so'lish namligi qiymati bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Albatta ularning eng yuqori qiymatlari gumusga nisbatan boy, qumoq qatlamlarga to'g'ri keladi.

Eskidan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning yuqori qatlamlarida maksimal gigroskopik namlik 3,72 dan 4,61 % gacha, tuproq mexanik tarkibining yengillashishi bilan uning qiymati ham sezilarli ravishda pasayadi (0,90-1,12 %). O'rganilayotgan tuproqlarning profili bo'yicha so'lish namligining o'zgarishi tabiati maksimal gigroskopik namlik qiymatiga to'liq mos keladi.

Tuproqda tuzlarni to'planishi va profil bo'ylab harakati ko'p jihatdan tuproqning fizik xususiyatlariga bog'liq, chunki tuzlarni tuproq qatlamlari bo'ylab taqsimlanishi mexanik tarkib, zichlik, suv-fizik xususiyatlariga bog'liq holda kechadi. Bu esa o'z navbatida meliorativ holati yomonlashgan tuproqlarni ekologik baholashni taqozo etadi. Shunga bog'liq holda, tadqiqotlar davomida tuproqning fizik holatining integral ko'rsatkichi (TFHIK) qiymatini aniqlash maqsadida mexanik tarkib, namlik, strukturaviylik holati, hajm og'irligi, solishtirma og'irligi, umumiy g'ovaklik, gumus miqdori hamda organik uglerodi miqori kabi qator informativ ko'rsatkichlardan foydalandik.

Ma'lumki, tuproqdagi uglerod miqdori bevosita tuproqning agrofizik xususiyatlariga ham ijobiy ta'sir ko'satadi. Shu bois tuproqlar ekologik holatini baholashda organik uglerod miqdorini hisobga olish, tuproq diagnostikasidagi eng maqbul usullardan hisoblanadi. Tadqiqotlar davomida tuproq organik uglerodi (TOU) va tuproqning fizik xususiyatlari o'rtasida uzviy korrelyatsion bog'liqliklar aniqlandi. O'rganilgan tuproqlar bo'yicha har bir informativ ko'rsatkichning eng yuqori qiymati 100, qolgan ko'rsatkichlar esa unga nisbatan foizda hisoblab chiqildi (2-jadvalga qarang).

## 2-jadval


### O'tloqi-allyuvial tuproqlarning ustki qatlami bo'yicha tuproq fizik holatining asosiy parametrlari

Tuproq organik uglerodi, t/ga	Fizik loy miqdori, %	Hajm og'irligi qiymati, g/sm <sup>3</sup>	Solishtirma og'irligi qiymati, g/sm <sup>3</sup>	Umumiy g'ovaklik, %	Maksimal gigroskopiklik, %	So'lish namligi, %	Agregat holati, %	Struktura-viylik koeffitsiyenti, %
Kesma-1. Eskidan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproq, Baxtyli massivi, QQDITI xo'jaligi, sho'rlanmagan, xlorid-sulfatli tip								
29,39	29,1	1,27	2,62	51,5	4,61	6,92	3,1	75,5
Kesma-4. Yangidan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproq, Baxtyli massivi, sho'rlanmagan, xlorid-sulfatli tip								
23,59	23,5	1,31	2,65	50,8	3,20	4,80	2,37	70,3
Kesma-8. Yangidan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproq, Chimboy massivi, kuchsiz sho'rlangan, xlorid-sulfatli tip								
22,25	44,2	1,33	2,64	49,6	2,35	3,53	1,42	58,7
Kesma-11. Eskidan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproq, Chimboy massivi, o'rtacha sho'rlangan, xlorid-sulfatli tip								
16,88	43,2	1,35	2,62	48,5	3,52	5,28	0,99	49,8
Kesma-14. Yangidan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproq, Chimboy massivi, kuchli sho'rlangan, xlorid-sulfatli tip								
15,45	47,0	1,34	2,64	49,2	4,31	6,47	0,82	45,2

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan tuproqlarda ko'rib chiqilgan barcha parametrlar ularning hududning tabiiy-iqlim sharoitlariga, sug'orish davrining davomiyligiga, sho'rlanish darajasiga bog'liq holda o'zgarishini ma'lum bo'ldi.

Tuproqlarning agrofizikaviy xususiyatlari hamda organik modda miqdori asosida hisoblab chiqilgan tuproq fizik holatini integral ko'rsatkichi qiymatiga ko'ra ushbu tuproqlarni quyidagi kamayib boruvchi qatorga joylashtirish mumkin, ya'ni: eskidan sug'oriladigan sho'rlanmagan o'tloqi-allyuvial tuproq, yangidan sug'oriladigan sho'rlanmagan o'tloqi-allyuvial tuproq, eskidan sug'oriladigan kuchsiz sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproq, yangidan sug'oriladigan kuchsiz sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproq, eskidan sug'oriladigan o'rtacha sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproq, yangidan sug'oriladigan kuchli sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproq, sho'rhok tuproq (1-rasmga qarang).

Hudud tuproqlarining ekologik va meliorativ jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, o'tloqi-allyuvial tuproqlarning muayyan bir fizik xususiyatlarini shakllanishi yoki rivojlanishi hududning tashqi omillar bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida ro'y beradi.



**1-rasm. Turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning fizik holatini integral ko'rsatkichi qiymati (TFHIK), %.**

Ya'ni cho'l mintaqasi tuproqlarining hosil bo'lishi va tuproqlarda kechadigan ichki jarayonlarining yuzaga kelishi, shuningdek tuproqlar funksiyalarini bajarilish holati bevosita hududning tabiiy-iqlim sharoitlari hamda tuproqlardan qishloq xo'jaligida foydalanish tartiblari tufayli yuzaga kelgan salbiy jarayonlarning jadalligi bilan belgilanadi. Tuproqlarning fizik holatini integral ko'rsatkichi qiymati asosida sho'rlangan tuproqlarni ekologik baholash ular fizik holatining o'zgarish qonuniyatlariga bog'liqligini namoyon etdi. Shu bois, ushbu baholash asosida sho'rlangan tuproqlarning fizikaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar kompleks aniqlangan va ularning TFHIK qiymati asosida sho'rlangan tuproqlarining ekologik holatini nisbiy baholash shkalasi tuzilgan (3-jadvalga qarang).

Shuningdek, ushbu shkalaga muvofiq o'rganilgan tuproqlarning fizik holati qiyosiy tahlil qilingan va TFHIK qiymati bo'yicha guruhlariga ajratilgan. Bunda

sho‘rlangan tuproqlarning xossa-xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning eng optimal fizik holatini 75 dan 100 % gacha deb oldik va tuproqlarni ekologik holatini baholash shkalasi bo‘yicha a’lo darajaga tenglashtirdik.

Umuman olganda, yuqorida sanab o‘tilgan tuproqning fizik holatini belgilovchi parametrlar hudud tuproqlarining meliorativ holatini yaxshilash maqsadida ishlov berish turlarini tanlash, agromeliorativ tadbirlarni belgilash imkonini beradi, shuningdek o‘g‘it va boshqa meliorantlar orqali tarkibini oziqa elementlari va organika bilan boyitishda kuzatilishi mumkin bo‘lgan o‘zgaruvchan qiymatlar sifatida ko‘rib chiqishga xizmat qiladi.

### 3-jadval


#### TFHIK qiymati asosida sho‘rlangan tuproqlarining ekologik holatini nisbiy baholash shkalasi

Tuproq ekologik holatini baholash shkalasi	TFHIK qiymati, %	Tuproq guruhlari
a’lo daraja	75-100	eskidan va yangidan sug‘oriladigan sho‘rlanmagan o‘tloqi-allyuvial tuproq, eskidan va yangidan sug‘oriladigan kuchsiz sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar
yaxshi daraja	75 - 50	eskidan sug‘oriladigan o‘rtacha sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproq, yangidan sug‘oriladigan kuchli sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar
qoniqarli daraja	50 – 25	juda kuchli sho‘rlangan tuproqlar va sho‘rhoklar
qoniqarsiz daraja	< 25	Tadqiqot hududida ushbu guruhga to‘g‘ri keladigan tuproqlar uchramadi, bu albatta hududda uzluksiz ravishda amalga oshirilayotgan agromeliorativ tadbirlar natijasidir.

